

O'ZBEKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING QAROR TOPISH DAVRIDA KUTUBXONALAR (1917-1941)

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i03.006>

Mahmudova Madinabonu Hasanjon qizi

O'zbekiston tarixi kafedrası 2-kurs magistranti

mahmudovamadinabonu@gmail.com

+998772760120

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet hokimiyati qaror topish yillaridan to 1941-yillargacha ya'ni, socialistik jamiyat qurish va uni mustahkamlash davrida kutubxonalar tarmog'ini tashkil etish va rivojlantirish haqida ma'lumotlar yoritilgan. O'lkada kutubxonalarning tashkil etilishidan asosiy maqsad rus fani va madaniyatini targ'ib qilish, tabiiy boyliklarni o'rganish, Turkiston o'lkasi aholisining hayoti va turmush tarzi bilan tanishish vazifalari edi.

Kalit so'zlar: ilmiy kutubxonalar, klublar, qiroatxonalar, madaniy inqilob, xalq dorilfununi, fondlar, kartateka, kolleksiya

1917-yilga kelib Turkiston hududida rus aholisi uchun ikkita xalq kutubxonasi, bir necha shahar kutubxonasi, bir qancha ilmiy va jamoat tashkilotlari kutubxonalari, maktablar, harbiy qismlar qoshidagi kutubxonalar va xususiy kutubxonalar mavjud edi. Mahalliy aholi vakillari esa faqat milliy yo'nalishdagi ikkita kutubxonadan va madrasalar xuzuridagi o'quv-diniy kutubxonalardan foydalana olishardi[4;55].

1918-1919-yil oktyabr voqealaridan keyin jamiyatda sovet kutubxonalarini tashkil etish jarayoni boshlanib ketdi. V.I.Lenin kutubxonalar ishini madaniy inqilobning muhim bosqichi, xalq ommasini ma'rifatli qilish, uning siyosiy ongini oshirishning qudratli vositasi deb bilar edi[2;103].

Xalq ommasining bilim va madaniyatga misli ko'rilmagan darajada intilishi kutubxonalarning juda tezlik bilan, ko'pincha stixiyali ravishda tashkil etilishi sabablaridan biri bo'ldi. Xalq maorifi organlari xalqning tashabbusini qo'llab-quvvatladilar. Toshkentda tashkil etilgan xalq dorilfununi zimmasiga ko'pgina madaniy muassasalarni birlashtirish vazifasi topshirildi. Xalq Kommisarlari Sovetining 1918-yil 31-maydagi buyrug'i bilan o'lkada eng yirik Turkiston xalq kutubxonasi dorilfunun ixtiyoriga o'tkazildi. Maxsus kutubxona tomonidan kutubxona qaytadan tashkil etildi. Fondlardagi qimmatbaho kitoblarni saqlab qolish maqsadida kutubxona kitoblarni uyga berilmaydigan davlat kitob xazinasiga aylantirildi.

Ayni vaqtda 1918-yilda Toshkentda bir qancha yangi kutubxonalar, asosan bolalar kutubxonalari va o'quv kutubxonalari tashkil etildi. Bu kutubxonalarning kitob fondlari

sotib olingan va hadiya qilingan kitoblar hisobiga vujudga keltirildi. Yangi tashkil etilgan kutubxonalar orasida Markaziy bolalar kutubxonasi ham bor edi. U 1918-yilning sentabr oyi boshlarida ochilgan edi. Bu kutubxonaga kadetlar korpusi kutubxonasidagi va Turkiston xalq kutubxonasidagi kitoblar berildi.

Kutubxonalar va muassasalarning milliyashtirilgan fondlari eng avval Turkiston xalq kutubxonasiga kelib tushgan, bu kutubxona 1919-yilning o'rtalarida Turkiston xalq kutubxonasi deb atalgan, uning 50 yilligi munosabati bilan esa (1920-yilning mayida) davlat kutubxonasi deb atala boshladi. O'sha 1919-yilning o'zida kutubxonachilik bo'limi jumhurriyatda dastlabki ommaviy kutubxonalarni tashkil etishga kirishadi. Bo'lim dastavval Turkiston xalq kutubxonasi kitoblarining ikkinchi nusxa kitoblaridan foydalanishga to'g'ri keldi. Turkiston xalq kutubxonasi bazasida avval bir nechta filiallar tashkil etilib, ular keyinchalik ommaviy kutubxonalarga, so'ngra viloyat kutubxonalariga aylantirilishiga asos vazifani o'tagan.

1920-yilning boshlariga kelib Sovet Turkistonida 147 ta kutubxona, 172 ta qiroatxona, kichkina kutubxona-qiroatxonasi bo'lgan 176ta qizil choyxona bor edi[5;220].

Turkiston frontining harbiy qismlarida ham kutubxonalar tarmog'i keng ko'lamda rivojlana bordi. Front inqilobiy- harbiy kengashining siyosiy boshqarmasi huzurida kutubxonalar bo'limi tashkil etildi. Polklarda, batalyonlarda, harbiy kasalxonalarda kutubxonalar tashkil topdi. Kichkina ko'chma kutubxonalar rotalarda va boshqa bo'limlarda ham bor edi. Bundan tashqari, katta shaharlarda asosiy umumgarnizon kutubxonalari ham tashkil etildi. Ulardan biri garnizon markaziy kutubxonasi 1919-yil boshlarida Toshkentda, ikkinchisi Samarqandda (Samarqand viloyat xarbiy komissarligi huzurida) ochiladi. 1921-yilda boshlangan yangi iqtisodiy siyosatga o'tish davrida kutubxonalar sonining keskin kamayishiga sabab bo'ldi. Ommaviy kutubxonalar tarmog'i uch baravar qisqardi. Kutubxonalarning bunchalik qisqarib ketishini joylardagi hokimiyat organlarining xatti-harakati bilan izohlash mumkin; bu organlar mablag'yetishmasligidan qiynalib, kutubxonalarni berkitib, bo'shagan mablag'lardan boshqa juda zarur maqsadlarda foydalandilar.

1923-yilning 1-yanvarida Turkiston Maorif xalq komissarligi qaramog'ida 280094 nusxa kitob fondiga ega bo'lgan jami 64 ta kutubxona ishlamoqda edi. Bu kutubxonalar hammasi bo'lib 34463 kitobxonga xizmat ko'rsatardi. Kutubxonalardan 35tasi hozirgi o'zbekiston hududida edi. Toshkentda ahvol birmuncha yaxshi edi. Bu yerda 1099852 nusxa kitob fondiga ega bo'lgan 12ta kutubxona bo'lib, bu kutubxonalar 17869 kitobxonga xizmat ko'rsatardi. Farg'ona viloyatidagi 14 ta kutubxonaning kitob fondida 35820 nusxa kitob bo'lib, kitobxonlar soni 2268 kishi edi[5;88].

1925-yil O'zbekiston SSR tashkil etilgach, Turkiston davlat kutubxonasi O'zbekiston SSR Davlat kutubxonasiga aylantirildi va mustaqil ilmiy muassasa sifatida

o'z faoliyatini olib borishni boshladi. Kutubxona qayta tashkil etilgandan so'ng oradan ko'p vaqt o'tmay, Toshkentning eng ommaviy muassasalaridan biriga aylandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1916-yil kutubxona fondidan 1500 kishi foydalangan va bu kishilar kutubxonaga 30ming marta kelib, 38mingta kitob olganlar. Ushbu raqamlar 1924-yilga kelganda esa kitobxonlar soni 4460mingga yetib, kutubxonaga kelish 740011 martani, berilgan kitoblar miqdori esa 106860nusxani tashkil etdi.

Birinchi besh yillikning dastlabki yili bo'lgan 1928-yilga kelib, O'zbekiston madaniy qurilish sohasida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Umumta'lim maktablari soni 2320taga yetdi. Kutubxonalar soni esa 187 taga kitob fondlari esa 358800nusxaga yetdi.¹ Besh yillik rejada esa kutubxonalar soni uch baravar ko'paytirilishi nazarda tutilgan edi, ya'ni besh yillikning oxiriga kelib respublika shaharlari 153ta qishloq joylarda esa 330 ta kutubxona ishlashi maqsad qilib olingan edi. Kutubxonalarning qurilishi O'zbekistonning boshqa shaharlariga nisbatan Toshkent shahrida oldinroq boshlandi. Maorif xalq kamissarligi siyosiy-ma'muriy bosh boshqarma huzurida yangi organ- kutubxonalar birlashmasi byurosini tuzdi, bu byuro tarkibiga yirik kutubxonalarning, kutubxona birlashmalarining vakillari kirar edi. Mazkur byuroning 1930-yil 27-aprelda bo'lgan birinchi majlisida o'lkaning barcha yirik shaharlarida kutubxonalar birlashmalarini tuzish ishini tugallashga qaror qilindi va ishlab turgan kutubxonallarning malakasini tekshirish uchun alohida ekspert kamissiyasi tuzildi.

Ilmiy kutubxonalar ham keng ko'lamda rivojlandi. Masalan, o'sha vaqtda jamiyatda mavjud bo'lgan 179ta ilmiy kutubxonaning 98%i oktabr socialistik inqilobidan keyin vujudga keldi. 1934-1936 yillarda O'zbekistonda 208ta yangi kutubxona xizmat ko'rsatardi. Kutubxonalarning asosiy tarmog'i shaharlarda to'plangan edi. Shahar va qishloq kutubxonalari o'rtasida kitob fondlari nomutanosib taqsimlanganligi ham ma'lum bo'ldi. 1934-1936 yillarda O'zbekistonda 208ta yangi kutubxona shu jumladan, 18ta viloyat, 68 ta qishloq kutubxonalari va klublar huzurida 122 ta kutubxona ochildi. Qishloq kutubxonalarining ko'pchiligi yangi binolarga ko'chib o'tdi. Qishloq va viloyat kutubxonalari keng jamoatchilik yordamida 1935-yilda 115 mingga yaqin kitob oldilar. Sexlarda, korxonalarda, jamoa va davlat xo'jaliklarida ko'chma kutubxonalar tashkil qilindi.

Aholiga kutubxona xizmati ko'rsatishni yaxshilashda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1934-yil 27-martda qabul qilgan "SSR Ittifoqida kutubxonachilik ishi to'g'risida" degan qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Qarorda kutubxonalar ishini yanada yaxshilashga doir chora tadbirlar nazarda tutildi. Shu jumladan jamiyat kutubxonalari uchun ajratilgan mablag'lardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligi ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan kutubxonalarni to'ldirish uchun

mahalliy byujetdan ajratilgan mablag'larning 70% jumhurriyat kutubxona kolleksiyasi beriladigan bo'ldi.

O'zbekistonda birinchi va ikkinchi besh yilliklar davrida ommaviy kutubxonalar ana shunday sezilarli darajada o'sdi. O'zbekiston SSR tashkil etilgandan keyin o'tgan yillar ichida O'rta Osiyodagi bu yetakchi jumhurriyatning kutubxonalar tarmog'i 40 baravardan ziyodroq ko'paydi. Kutubxonalarning kitobxonlar bilan ishlash saviyasi ancha o'sdi. Bu, jumladan, kitob muomalasi ko'rsatkichlarining o'sishida o'z aksini topdi. Masalan kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash natijasida Toshkentda kitoblarning o'rtacha muomalada bo'lishi 2,11 ga yetdi. Samarqand viloyati kutubxonalari ham kitoblarning o'rtacha muomalada bo'lishi ko'paydi.²

Statistika ma'lumotlariga qaraganda, 1939-yil kutubxonachilik tarmog'i 1915-yilga nisbatan 100 baravardan ziyodroq, 1924-yilga nisbatan esa 33,5 baravar o'sdi. 1938-yil 148ta maxsus kutubxonani taminlash uchun 2,5 million so'm mablag' ajratildi. 1938-yilda O'zbekiston SSR da viloyat kutubxonalari tashkil etildi. Bu kutubxonalar maxsus qurilgan binolar bo'lib, kitob sotib olish uchun yetarli mablag' bilan ta'minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: 2011.
2. Lenin V.I. O'rta Osiyo va Qozog'iston to'g'risida. T.:O'zdavnashr, 1960.
3. Murtazoyeva R. O'zbekiston tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.
4. Qosimova O. O'zbekistonda kutubxonachilik tarixi.1992.
5. Statistik to'plam. SSSR, 1940.
6. w.w.w arxiv uz
7. www.lex.uz
8. w.w.w gazeta.uz

² www.arxiv.uz